



Ma'naviyatning yurtimiz hayotida dolzarbligi

Berkinov Oybek Toxir o'g'li

Chirchiq Davlat Pedagogika Universiteti o'qituvchisi

oybekberkinov98@gmail.com

Sherniyazov Sherzod Qurbonniyazovich

Chirchiq Davlat Pedagogika Universiteti 2-bosqich talabasi

sherniyozovsherzod1986@gmail.com

Annotatsiya: O'zbek xalqi o'z madaniyati va ma'naviyatida yoshlar tarbiyasiga alohida e'tibor bergan va bunday komillik darg'alarini etishtirish har bir zamonda muhim sanalgan. Hazrat Navoiy bobomiz ham: —Olamdan g'amsiz o'tay desang, ilm-u hunar o'rgan. Dunyodan kamolotga etmay o'tish – hammomdan toza bo'lmay chiqishning xudi o'zil, - deya ta'riflaganlar. Demak, dunyoga kelmoqdan murod komillikka, yaxshilikka intilmoqlikdir. Har bir millat o'z kelajak avlodida komillikni ko'rishni orzu qiladi. Bunday insoniy fazilatlar esa oilada shakllanadi. Jamiyatlardagi ma'naviy-axloqiy muhitning sog'lomligi, komil inson tarbiyasi ko'p jihatdan oilaviy madaniyatga, tarbiyaga bog'liqdir. Oila qanday bo'lsa, jamiyat ham shunday bo'ladi. Vatanimizning kelajagi, xalqimiz ertangi kuni, mamlakatimizning jahon hamjamiyatidagi obro'-e'tibori, avvalambor, farzandlarimizning unib-o'sib, ulg'ayib, qanday inson bo'lib hayotga kirib borishiga bog'liqdir. Biz bunday o'tkir haqiqatni hech qachon unutmasligim kerak.

Kalit so'zlar: Jamiyat, xalq, oila tarbiyasi, Ma'naviy barkamol inson, oila, o'z-o'zini idora qilish, maktab, yoshlarni tarbiyasi, kelajak avlod, ota-ona.



Abstract: The Uzbek people paid special attention to the education of young people in their culture and spirituality, and the cultivation of such levels of perfection was considered important in every era. Hazrat Navoi also said: "If you say that you will pass away without sorrow, you have learned knowledge and skills." Leaving the world without maturity is the same as coming out of the bathroom without being clean. So, the desire to come into the world is to strive for perfection and goodness. Every nation dream of seeing perfection in its future generation. Such human qualities are formed in the family. The health of the spiritual and moral environment in the society, the education of a perfect person depends to a large extent on family culture and upbringing. As the family is, so is the society. The future of our country, the tomorrow of our people, the reputation of our country in the world community, depends, first of all, on how our children will grow up and become human beings. We should never forget such a sharp truth.

Key words: Society, nation, family education, Spiritually mature person, family, self-management, school, youth education, future generation, parents.

Абстракт: Узбекский народ уделял особое внимание воспитанию молодежи в своей культуре и духовности, и воспитание такого уровня совершенства считалось важным во все эпохи. Хазрат Навои также сказал: «Если вы говорите, что уйдете без печали, вы приобрели знания и навыки». Уйти из мира без зрелости — это то же самое, что выйти из ванной нечистым. Итак, желание прийти в мир — это стремление к совершенству и добру. Каждая нация мечтает увидеть совершенство в своем будущем поколении. Такие человеческие качества формируются в семье. Здоровье духовно-нравственной среды в обществе, воспитание совершенного человека во многом зависит от культуры и воспитания семьи. Какова семья, таково и общество. Будущее нашей страны, завтрашний день нашего народа, репутация нашей страны в мировом сообществе зависит, прежде всего, от того, какими вырастут и станут людьми наши дети. Мы никогда не должны забывать такую острую истину.



Ключевые слова: Общество, нация, семейное воспитание, Духовно зрелый человек, семья, самоуправление, школа, воспитание молодежи, будущее поколение, родители.

Ma'lumki, muqaddas zaminimizda qadimdan milliy urf-odat va an'analarimizni yosh avlod ongiga singdirishda, ularni jismonan barkamol, ma'nan yetuk, mehr-oqibatli insonlar qilib tarbiyalashda oila muhiti muhim o'rin egallab kelgan. Keksalarning ibratli hayot yo'li, o'g'itlari, yillar silsilasida toblangan tajribasi yoshlarimizning to'g'ri yo'lni tanlashlarida yo'lboshchi vazifasini o'tamoqda. O'zbekistonning mustaqilligini mustahkamlashda iqtisodiy, fan-texnika, xo'jalik, siyosiy, madaniy, mudofaa kabi jabhalar nixoyatda muhim o'rin tutganidek, manaviy, mafkuraviy faktorlar ham cheksiz ahamiyatga ega. O'zbekiston Prezidenti I.Karimov ta'kidlaganidek, "ma'naviyat insonning, xalqning, jamiyatning, davlatning kuch-qudratidir. Binobarin, ma'naviy madaniyat qancha yuksak bo'lsa, jamiyat shuncha tez sur'atlarda mustahkamlanib boradi, natijada boshqa ijtimoiy muammolarni, jumladan o'quvchi - yoshlar ongiga milliy ma'naviy, mafkuraviy tamoyillarni singdirish jarayoni faollashadi. Ma'naviyat va milliy istiqlool mafkurasi o'zida muhim umuminsoniy qadriyatlarni mujassamlashtirgan ulkan institutlardir. Bizning hozirgi milliy istiqlool g'oyasi va mafkurasi ham o'zining ma'naviy tarixiy ildizlariga ega. O'zbekiston Prezidenti I.Karimov milliy istiqlool mafkurasining ma'naviy ahamiyati haqida gapirib, "Milliy mafkurani shakllantirishdagi eng katta manba - bu haqqoniy yoritilgan tarixdir. Tarixni bilmay turib, mafkuraning falsafiy negizlarini anglab bo'lmaydi..." - deb ta'kidlagan edilar. SHu ilmiy haqiqatga asoslansak, ma'naviyat jamiyatning shaxsning ijtimoiy, siyosiy, ruhiy, ahloqiy faolligini, tafakkur darajasini bildiradigan mezon bo'lsa, milliy istiqlool mafkurasi esa xalqimizning, jamiyatning, davlatning maqsad - vazifalarini, talab-istaklarini amalga oshirishga xizmat qiladigan g'oyalar infrastrukturasidir. Ma'naviyatning ham, milliy istiqlool mafkurasining ham ob'ekti bitta, u ham bo'lsa shaxsdir. Yurtboshimiz I.A.Karimov xalqimizni ma'naviy-ma'rifiy ruxda tarbiyalash haqida quyidagi fikrlarni bildirdilar: «Xalqning ma'naviy ruhini mustahkamlash va rivojlantirish - O'zbekistonda davlat va



jamiyatning eng muxim vazifasidir. Ma'naviyat shunday bir kimmatbaho ne'matki, u bizning qadimiy va navqiron xalqimiz qalbida butun insoniyatning ulkan oilasida o'z mustaqilligini tushunib yetish va ozodlikni sevish tuyg'usi bilan birgalikda yetilgan. Erkin fuqaro ongli yashaydigan mustaqil fikrga ega bo'lgan shaxs ma'naviyatini shakllantirish bizning bosh milliy g'oyamiz bo'lishi zarur''. Respublikamiz taraqqiyotining hozirgi bosqichi jamiyat hayotining barcha jabhalarida tub sifat o'zgarishlari bilan amalga oshirilayotganligi bilan xarakterlanadi. Tabiiyki, bu ulkan vazifani hal etish fuqarolarimizning ijodiy faolligini tinmay oshirib borish va kamol toptirish bilan uzviy bog'liqdir. Jamiyat ma'naviy hayotini rivojlantirish kishilarning ma'naviyat va ma'rifat, madaniyat va ilm-fan to'g'risidagi tasavvurlarining nechog'li ilmiyligi, shuningdek, to'g'ri nazariy va amaliy negizga qo'yilganligi bilan bog'langandir. Ma'naviyatni rivojlantirish sohasidagi mustaqillik siyosati ma'naviy hayot, madaniy taraqqiyotning umumiy qonunlarini ilmiy jihatdan yangicha ishlab chiqishni, ma'naviy-ma'rifiy omilning demokratik, insonparvarlik tamoyillari va bozor iqtisodiyoti asosida qurilayotgan yangi jamiyatda tutadigan o'rnini belgilab olishni kun tartibiga qo'yadi. Prezidentimiz I.A.Karimov alohida ta'kidlaganidek, «Yurtimizda yashayotgan har bir inson, avvalo, unib-o'sib kelayotgan yangi avlodning har tomonlama barkamol, irodasi baquvvat, iymoni butun bo'lib voyaga yetishi uchun keng jamoatchilik va aholimiz o'rtasida ma'naviy-ma'rifiy faoliyatimizni yuksak darajaga ko'tarishning ahamiyati beqiyosdir''. Binobarin, ongli yashaydigan erkin fuqaro, mustaqil fikrga ega bo'lgan shaxs va fuqarolik jamiyati ma'naviyatini kamol toptirish O'zbekiston Respublikasi taraqqiyotining asosini tashkil etadi. Mazkur dasturulamal ko'rsatmalar sifatida o'quv yurtlarimizda o'qitilayotgan ijtimoiy-gumanitar fanlar oldiga ulkan vazifalarni qo'yadi, yoshlarning ma'naviyatini shakllantirish, ularning ma'naviy-ma'rifiy faoliyatlarini yuzaga chiqarish omillarini ilmiy tadqiq etish, yuksak e'tiqod ruhida tarbiyalash mas'uliyatini yuklaydi. Respublikamizning barcha o'quv yurtlarida, kollej va litseylarida «Ma'naviyat va ma'rifat asoslari» kursining o'qitilishi ana shu ezgu maqsadlarga yo'naltirilgandir. Mazkur kurs rejasida ma'naviyat va uning jamiyat hayotida tutgan o'rni, milliy mustaqillik va komil insonni tarbiyalash bilan bog'liq ma'naviy omillariga alohida e'tibor beriladi. Milliy mustaqillikka erishgach O'zbekiston



Respublikasida ijtimoiy pedagogika fani taraqqiyotida yangi bosqich boshlandi. Xususan, pedagogik tadqiqotlarning ko'lamini kengaytirildi, milliy pedagogik madaniyati, me'rosi chuqur o'rganilib, shaxsga ta'lim berish va uni tarbiyalash borasidagi jahon tajribalari yutuqlaridan milliy xususiyatlariga tayangan holda foydalanish borasidagi izlanishlar yuzaga keldi. O'rta Osiyo mutafakkirlarining asarlarida ko'plab ilg'or pedagogik fikrlar ifodalangan bo'lib, ular xalq pedagogikasini asosiy manbalaridan biri, yoshlar tarbiyasida muhim vositadir. Go'zal axloq, baxt, insof, poklik, iffat, sabr-matонат, mehr-shafqat, sihat-salomatlik, ota-onani hurmat qilish, Vatanni sevish, o'zligini anglash, fidoiylilik, mehnatsevarlik, do'stlik, mardlik kabi hislatlar shakllanishining yo'l va uslublarini ko'rsatib berganlar. Oila insonni halol va pokiza bo'lishiga, ilm-fan asoslarini egallashga, beva-bechoralarni qo'llab-quvvatlashga, tabiatni e'zozlashga da'vat etadigan diniy, ma'naviy, axloqiy qadriyatlarga alohida e'tibor berishga o'rgatadi. Oila — an'anaviy tarbiyaning asosiy instituti bo'lib hisoblanadi. Bola yoshlik davrida oilada olgan ma'naviy-ma'rifiy ta'lim-tarbiyasini butun umri davomida saqlab qoladi. Bola hayotini asosiy qismini oilada o'tkazadi, o'zining ta'sir kuchiga ko'ra hech qanday tarbiya vositasi oila bilan bellasha olmaydi. Oilada bola shaxsini asoslari tarkib topdiriladi, maktabga borganda esa bola shaxs sifatida shakllangan bo'ladi. Oila bolalarga insoniy va salbiy ta'sir etish omili bo'lishi mumkin. Bola shaxsiga ijobiy ta'sir etish shundan iboratki, oilada bolaga eng yaqin insonlardan - ota-ona-buvi-buva-aka-opalardan tashqari hech kim ulardek bolani yaxshi ko'rib, u haqida qayg'urmaydi. Shu bilan birga bola shaxsini shakllantirishga, ularga tarbiya berishda oila salbiy ta'sir ham ko'rsatishi mumkin. Oila — bu o'ziga xos jamoadir, u tarbiyada asosiy o'ringa egadir. Oilani o'ziga xos tarbiyaviy ahamiyatini hisobga olgan holda, oilani bolaga ijobiy ta'sirini oshirib, salbiy ta'sirini kamaytirish zarur. Buning uchun esa tarbiyaviy ahamiyatga ega bo'lgan, ichki oilaviy ijtimoiy-psixologik omillarni aniq belgilash lozim. Komil inson tushunchasi o'rta asrlarda ishlab chiqilgan bo'lib, musulmon Sharqida, asosan, islomiy nuqtayi nazardan ta'riflab kelingan. Aslida «komil inson» tushunchasining dunyoviy mazmuni borligini ham e'tibordan soqit qilish mumkin emas. Uning falsafiy ma'nosi umummilliy ahamiyatga ega va umuminsoniy qadriyat sifatida asrlar davomida sayqal topib rivojlanib kelmoqda.



O'zbekiston Respublikasi Prezidenti I.A.Karimov «O'zbekiston XXI asr bo'sag'asida» asarida sharq falsafasining bir qismi bo'lgan islom sivilizatsiyasining fazilatlarini chuqur tushunishni istamaslik, kayfiyatini tanqid qilgan edi. Shu nuqtayi nazardan tasavvuf falsafasida komil inson konsepsiyasi alohida diqqatga sazovordir. Ko'rinib turibdiki, ma'naviyati va marifati past odam tubanlik sari ketadi. Komillikning har bir davrga xos mezonlari bo'lganligini ham alohida ta'kidlash kerak. Nodonga nisbatan oqil, loqaydga nisbatan sergak, baxilga nisbatan sahiy, tanbalga nisbatan serg'ayrat, qo'rqqoqqa nisbatan botirlik kabi xislatlar o'ziga xos o'lchov vazifasini ham o'tagan. Mamlakatimizda yangi jamiyat barpo etilmoqda, uning bag'rida shakllanishi lozim bo'lgan komillikning mohiyati, shartlari va nizomlari qanday bo'ladi. Negaki, ma'naviyat va ma'rifat barcha zamonlarda tengsiz qudrat, baxt-saodat, tinchlik, bunyodkorlik, hamjihatlik mezoni, ruhiy poklanish va qalbni yuksaltiruvchi ne'mat bo'lib kelgan. Chunki u millatni, xalqni, demakki, insonlarni yuksak fazilatlar, kamolotga yo'llovchi axloqiy mezonlar asosida yashashga, xudbinlik, g'aflat asiriga aylanmay hamisha yaxshilik yo'lida bedor bo'lishga, bu olamni obod qilishga, go'zallikka burkashga chorlagan. Lekin bugungi kunda ming yillar davomida sayqallanib, boyib, rivojlanib kelgan yuksak ma'naviyatimiz, boqiy qadriyatlarimiz, axloqiy fazilatlarimizga soya solayotgan, umid gulshanlarimiz bo'lgan aziz farzandlarimiz ma'naviy- ruhiy dunyosini izdan chiqarishga qaratilgan tahdidlarni ko'rib tashvishlarimiz ortib bormoqda. Ta'bir joiz bo'lsa, ezgulik va yovuzlik, bunyodkor va vayronkor kuchlar, g'oyalar o'rtasidagi kurash tobora oshkora namoyon bo'lmoqda. Davlatimiz rahbari Birlashgan Millatlar Tashkilotining 4 yuksak minbaridan turib aytgan «Jaholatga qarshi ma'rifat» bilan kurashish g'oyasi dunyoviy ahamiyat kasb etmoqda. Xo'sh, yovuzlik, insonlar qalbiga xudbinlik, axloqsiz, buzg'unlik urug'ini sepuvchi yovuzlik, jaholat qachon mahv etiladi? Ezgulik, ma'rifat nimadan kuch oladi? Albatta, avvalo ezgu niyatdan, ezgu so'zdan, ezgu amaldan, pokiza va ulug' maqsadlar yo'lidagi milliy hamjihatlikdan. Ajdodlar tajribasidan ayonki, qaysiki yurt o'z xalqi qudratini jamlab umumxalq murodu maqsadiga eltuvchi yo'lga boshlay olsa, millat salohiyatini to'g'ri yo'naltira olsa, u davlatning mavqei, ishonch manbai, tengsiz bunyodkor kuchga aylanadi. Jamiyatda sog'lom dunyoqarash va bunyodkorlik umummilliy harakatga aylanadi. Kuni



kecha matbuotda e'lon qilingan O'zbekiston Respublikasi Prezidentining «Ma'naviy-ma'rifiy ishlar tizimini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida» hamda «Ma'naviyat va ijodni qo'llab-quvvatlash maqsadli jamg'armasini tashkil etish to'g'risida»gi qarorlari Yangi O'zbekistonni bunyod etish, Uchinchi Renessans poydevorini yaratishda yuksak ma'naviyat mustahkam poydevor bo'lib xizmat qilishi uchun barcha tashkiliy-huquqiy, moliyaviy manbalarni belgilab berganligi, yaxlit mustahkam uzluksiz tizimga asos solganligi bilan muhim tarixiy ahamiyatga ega bo'ldi. Endilikda, «Ma'naviy-ma'rifiy ishlar tizimini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida»gi qarorda ta'kidlanganidek, xalqimiz, ayniqsa, yoshlarni jaholat soyasini solish uchun tinimsiz chiranib yotgan ma'naviy tahdidlardan himoya qilish borasida tashkiliyamaliy va ilmiy-tadqiqot ishlarini yangi talablar asosida yo'lga qo'yish, bu yo'nalishda davlat tashkilotlari, fuqarolik jamiyati institutlari, ommaviy axborot vositalari hamda xususiy sektorning ijtimoiy hamkorligi mustahkamlash borasidagi ishlarni yangi bosqichga ko'taradi. Mavjud muammolarni hal etish, ma'naviy-ma'rifiy ishlarning samarasi va ta'sirchanligini oshirish, ko'lamini va miqyosini yanada kengaytirish, mamlakat aholisi, avvalo, yoshlar qalbida Vatanimizda amalga oshirilayotgan islohotlarga daxldorlik hissini kuchaytirish, sohadagi ishlarni muvofiqlashtirish bo'yicha yagona tizim yaratiladi. Ana shu asosda, ezgulik va insonparvarlik tamoyiliga asoslangan «Milliy tiklanishdan – milliy yuksalish sari» g'oyasini keng targ'ib etish orqali, jamiyatda sog'lom dunyoqarash va bunyodkorlik umummilliy harakatga aylantiriladi. Oila, ta'lim tashkilotlari va mahallalarda ma'naviy tarbiyaning uzviyligini ta'minlash, targ'ibot-tashviqot va tarbiya yo'nalishidagi ishlarni ilmiy asosda tashkil etish, soha bo'yicha ilmiy va uslubiy tadqiqotlar samaradorligini oshirish, ijtimoiy-ma'naviy muhit barqarorligini mustahkamlashga qaratilgan doimiy monitoring tizimi joriy qilinadi. El-yurt taqdiriga loqaydlik, mahalliychilik, urug'-aymoqchilik, korrupsiya, oilaviy qadriyatlarga bepisandlik va yoshlar tarbiyasiga mas'uliyatsizlik kabi illatlarga barham berishga qaratilgan kompleks chora-tadbirlar amalga oshiriladi. Aholining Internet jahon axborot tarmog'idan foydalanish madaniyati oshadi, g'oyaviy va axborot xurujlariga qarshi mafkuraviy immuniteti kuchaytiriladi. Madaniyat, adabiyot, kino, teatr, musiqa va san'atning barcha turlari, nashirlikmatbaa mahsulotlari, ommaviy axborot vositalarida



ma'naviy-axloqiy mezonlar, milliy va umuminsoniy qadriyatlar targ'iboti ustuvorligi ta'minlanadi. Hozirgi kunda yoshlarni milliy istiqlool ruhida tarbiyalash hamda kamol toptirishda sog'lom ijtimoiy-ruhiy muhitning samaradorligini yanada oshirishda murabbiylar va targ'ibotchilarga bir qancha vazifalar yuklatilgan. Har bir murabbiy, komillik targ'ibotchisi ta'lim-tarbiya jarayonini to'g'ri tashkil qilishga, sog'lom ijtimoiy muhitni yaratib berishga, mas'uliyatli vazifalarni vijdonan bajarishi lozimdir. Insonni kamolot sari etaklaydigan har qanday ta'limot o'z yo'nalishi, o'z tartib-qoidasi va o'z tamoyillariga asoslanadi. —Shu tariqa, komil insonning o'ziga xos axloq kodeksi ishlab chiqilgan bo'lib, bu sifatlarga ega bo'lish har bir odamning orzu-armoni deb qaralgan. Bundan yana shu ham ma'lum bo'ladiki, o'rta asrlardagi yaxshi axloq, komil inson haqidagi tushunchalar nisbiy xususiyatga ega – bir tomondan, jami ruhiy-ma'naviy qudrat, aqlu-zakovat, yaxshi sifatlarning jamuljami hisoblangan mavhum bir zot tushunchasi, ikkinchi tomondan, shu cho'qqiga intilib, muayyan martabalarga erishgan kishi ham komil inson deb hisoblangan.

Xulosa. Mamlakatimizda amalga oshirilayotgan islohotlar zamirida inson manfaatlarini ta'minlash ustuvor vazifa ekanligiga alohida e'tibor qaratilmoqda. Har bir davlat siyosatining bosh maqsadi o'z xalqini jamiyatda farovon hayot kechirish uchun barcha shart - sharoit yaratish muhim ahamiyat kasb etadi. Bu haqda, Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyev qayd etganidek: —Yurtimizda yashayotgan har qaysi inson millati, tili va dinidan qat'iy nazar, erkin, tinch va badavlat umr kechirishi, bugun hayotidan rozi bo'lib yashashi – bizning bosh maqsadimizdir, – deya ta'kidlagani bejiz emas, albatta. Mazkur yo'nalishda mamlakatimiz taraqqiyoti va xalqimiz farovonligi ta'minlash birinchi navbatda ijtimoiy sohadagi islohotlarimiz samarasi bilan chambarchas bog'liqdir. Zero, bugungi kunda mamlakatimizdagi ijtimoiy-siyosiy o'zgarishlar har bir fuqaroning talab va ehtiyojlari hisobga olingan holda amalga oshirilmoqda. Bugun oldimizga qo'yilgan maqsad, ma'naviyatli yoshlarni tarbiyalash ekan, bunda mahallaning o'rni beqiyosdir. Dono xalkimiz: —Bir farzandga etti qoshni ota-ona, — deb be'jiz aytmagan. Keksalarning pand-u nasihati, kattalarning shaxsiy ibrati, jamoaning hamjihatligi orqali insonlar ongiga ezgulik g'oyalari singdirib boriladi. Hozirgi kunda yoshlar ma'naviy dunqarashini shakllantirishda



mahallaning o'rniga katta e'tibor berilmoqda. Shu sababli mahallaning huquq va vakolatlari kengaytirilmoqda, ular bugun o'zini o'zi boshqarish idorasi sifatida keng ko'lamli faoliyat olib bormoqda.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining —O'zbek tilining davlat tili sifatidagi nufuzi va mavqeini tubdan oshirish chora-tadbirlari to'g'risidagi 2019 yil 21 oktyabr PF-5850-sonli Farmoni.
2. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining —Ma'naviy-ma'rifiy ishlar tizimini tubdan takomillashtirish chora tadbirlari to'g'risidagi 26 mart 2021 yil PQ-5040-sonli Qarori.
3. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti SH.Mirziyoyev raisligida 19 yanvar 2021 yilda ma'naviy-ma'rifiy ishlar tizimini tubdan takomillashtirishga bag'ishlab o'tkazilgan videoselektordagi ma'ruzasi.
4. O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi. -T. «O'zbekiston», 2019 Internet saytlari.
5. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021-yil 19-yanvardagi Respublika Ma'naviyat va ma'rifat Kengashi yig'ilishidagi ma'ruzasi.
6. I.A.Karimov. Yuksak ma'naviyat yengilmas kuch.